

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

“BOBURNOMA” ASARIDA XONZODA BEGIM OBRAZI TASVIRIDAGI  
O‘ZIGA XOSLIK

Alfraganus university o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti  
**Usmonova Shahodat**

**Annotatsiya:** Xonzoda begim Umarshayx va Qutlug‘ Nigorxonimning farzandi. Xonzoda begimning tarbiyasi bilan ko‘proq buvisi Eson Davlatbegim shug‘ullangan. Shayboniyxon uni nikohiga olish taklifini beradi. Shayboniyxondan Xurramshoh ismli o‘g‘li bo‘ladi. Malika Shayboniyxonning vafotidan keyin Mahdiy Xo‘jaga turmushga chiqadi. Xonzoda Begim 1545-yil Kobulhaq mazvesida vafot etgan.

**Аннотация:** Сын Ханзоды бегум Умаршейх и Кутлуг Нигорханым. Бабушка Ханзода-бега, Эсон Давлатбег, больше занималась ее образованием. Шайбани-хан предлагает жениться на ней. У Шайбани-хана есть сын по имени Хуррамшах. После смерти Малики Шайбани-хана она вышла замуж за Махдиходжу. Ханзода Бегум умерла в 1545 году в Кобулхаке Мазве.

**Annotation:** Son of Khanzoda Begum Umarshaikh and Qutlugh Nigorkhanim. Khanzoda Beg's grandmother, Eson Davlatbeg, was more involved in her education. Shaibani Khan offers to marry her. Shaibani Khan has a son named Khurramshah. After the death of Malika Shaibani Khan, she married Mahdi Khoja. Khanzoda Begum died in 1545 in Kobulhaq Mazve.

**Kalit so‘zlar:** Xonzoda begim, Karim-ut tarafayn, Andijon malikasi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayboniyxon, Xurramshoh, Qobulhaq, mehribon ayol.

**Ключевые слова:** Ханзода Бегум, Карим-ут Тарафин, царица Андижана, Захириддин Мухаммад Бабур, Шайбани-хан, Хуррамшах, Кабулхак, добрая женщина.

**Keywords:** Khanzoda Begum, Karim-ut Tarafain, Queen of Andijan, Zahiriddin Muhammad Babur, Shaibani Khan, Khurramshah, Qabulhaq, a kind woman.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Ayol Alloh tomonidan yaratilgan go'zal buyuk yaratiqdir. Ma'lumki, ayol go'zallik, nafislik timsolidir. Ayol o'zida aqlni, farosatni, zukkolikni mujassamlashtirgan eng oliy hilqatdir. Inson tarbiyasining boshlanishi ham, davomiyliigi ham albatta ayolga borib taqaladi. Axir, ayol tarbiyachidir. U orqali odamzot yo buyuklikka, yo tanazzulga yuz tutishi hech gap emas. Bejizga "Buyuk shaxs ortida ayol turadi" deb aytishmaydi. Har bir o'z o'rnini, qadrini bilgan kishilar ayolni hurmat qilishgan va e'zozlashgan. Bunga misol Temuriylar davlatining asoschisi, buyuk hukmdor ojiza, pokniyat, yuksak qalb egalari bo'lmish ayollarga alohida ehtirom ko'rsatgan. Ularning qadr-qimmatini bilgan, hurmatini o'z joyiga qo'ygan. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida " Mamlakatda birgina ayol qolganda ham hurmatini joyiga qo'ygan bo'lardim" deya o'zining ezgu fikrlarini bildirgan. Ko'ramizki, o'z o'rnini, qadrini bilgan har bir inson uchun albatta hayotida ayolning o'rni bo'ladi. Maqolamiz Xonzoda begim obrazini yoritishdir. " Boburnoma" ni o'qiganimizda u ukasi Mirzo Boburning hayotini saqlab qolish uchun va Temuriylar davlati hukmronligining davom etishi uchun o'zining orzularidan kechgan. O'zidan ancha yoshi katta bo'lgan Shayboniyxon taklif qilgan sulhni qabul qilgan. Bu bilan matonat, oilasi uchun o'zini ham qurbon qiladigan o'zbek ayollarini yaqqol ko'rsatib bergan.

Xonzoda begim Umarshayx Mirzoning va Qutlug' Nigorxonimning farzandi. Qutlug' Nigor xonimning ikki farzandi bo'lgan Xonzodabegim va Zahirddin Muhammad Bobur. Xonzoda Begim 1478-yilda Andijonda tug'ilgan. U Karim ut-tarafayn, ya'ni ikki tomonlama ulug' nasl hisoblangan. Otasi temuriylar sulolasiga mansub onasi esa Chingizxon avlodidan. Malikaning bolalik yillari poytaxt Axsida o'tgan. Xonzodabegim yoshligidanoq yaxshi ta'lim va tarbiya olgan. Unga diniy - ma'rifiy ilmlarni saroyning ilmli murabbiyalari tomonidan olgan. U aql-zakovatli, farosatli ayol bo'lgan. Yoshligidan ilmga mehr qo'gan Xonzoda begim saroy kutubxonasidagi kitoblardan o'qigan, tarix va adabiyotdan yaxshigina xabardor bo'lgan. Malika va Boburning tarbiyasi bilan ko'proq buvisi Eson Davlat begim shug'ullangan. Sababi Yunusxonga o'sha vaqtlar Toshkent hokimligi berilgan. Albatta Xonzoda begim va Boburning tarbiyasida Eson Davlat Begimning o'ni sezilib turar edi. Xonzoda begim ayni balog'at yoshiga yetganda ya'ni o'n olti yoshida otasi Umar Shayx Mirzo Axi qo'rg'onidagi kaptarxonasi bilan birga jarga yiqilib vafot etadi. Otasining vafotidan keyin aynan temuriylar saltanatining tanazzuli yana ham tezlashadi. Otasining taxtiga 12 yoshli Mirzo Bobur o'tiradi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Umarshayx Mirzo vafot etishi bilan Xonzoda begim va Qutlug' Nigor Xonim Axxi qo'rg'onida qamalda qoladi. Bu vaqtda Bobur Andijonda bo'lgan. Sulton Mahmudxon Axxini egallashga urinadi. Biroq Sulton Mahmudxon betoblighi sababidan ortiga qaytishga qaror qiladi. Mirzo Bobur ramazon oyida Andijonda podshoh deb e'lon qilingan. Shundan keyin malika Andijonga ko'chib o'tadi. "Boburnoma" da Xonzodabegim haqida ma'lumot ko'p berilmagan. Notinch siyosiy muhitda yashaganligi aniq. Bobur yosh bo'lishiga qaramasdan taxtni boshqarishga harakat qilgan. Ba'zi amaldorlarning uni yosh deb bo'ysunmaslik harakatlari ko'p kuzatilgan. Hayotiy tajribasi kam, suyanadigan odamlari sanoqli bo'lgan Bobur davlatni boshqarishda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan. Saroydagi saroy ahllarining ko'plari Boburga sadoqat bilan xizmat qilmagan. Bobur Mirzoning ham yuragida bobosidagi jo'shqinlik bor edi. Bobur taxtga o'tirgandan ikki yildan so'ng Samarqandni egallashga kirishadi. Uning yuragida bobosi Amir Temur kabi jo'shqinlik bor edi. U Samarqandni egallaydi. Bu albatta quvonchli xabar edi. Biroq Andijonda qolgan ukasi va uning tarafdorlari Andijonni qamal qiladi. Bobur Samarqandni tashlab Andijonga qaytar ekan yo'lda betob bo'lib qoladi. Uning atrofidagilar yosh va davlatni boshqarishda tajribasiz bo'lgan Boburni tashlab ketadi. Bunday qiyin vaziyatda qolgan Xonzoda Begim va Qutlug' Nigor Xonim poytaxtdan quviladi. Bobur kasallikdan butunlay tuzalib, onasi, opasi, tarafdorlari bilan uch yil sarson sargardonlikda o'tadi. Bu sinovli vaqtlardan keyin nihoyat Bobur Samarqandni Shaybonixonidan tortib oladi. Albatta bu quvonchli xabar opasi va onasi uchun quvonarli edi. Sababi shuncha qiyinchilikdan erishilgan natijadan ancha yaxshi tomonga o'zgaradi. Bobur ikkinchi marta Samarqandga yurish qilib kiritgandan so'ng opasi va onasi ham kelishadi. Xonzoda begimning bu Samarqandga ikkinchi tashrifi edi. Sababi ukasi Oysha Sulton Begimga beshikkerti qilganida kelgan edi. Biroq bu osoyishta, tinch hayot uzoqqa cho'zilmaydi. Shayboniyxon keyingi bahorda qo'lidan boy bergan Samarqandni egallash uchun hujum qiladi. Saripul yaqinidagi jangda Bobur ularga qarshi tura olmaydi. Bunga Boburning hayotiy tajribasi kamligi va askarlarining orasidagi tarqoqlik sabab bo'lgan. Qamal uzoqqa cho'ziladi. Shaharda yetishmovchilik, tanqislik juda tez yoyiladi. Shahar ahli ilojsiz qolib ketadi. Bobur "Boburnoma" sahifalarida opasi Xonzodabegimning sadoqati va jasoratini qaynoq qalbidan sizib chiqayotgan histuyg'ular ila tilga oladi. Asarning 1501-1502-yil voqealarida keltirilishicha, Bobur Samarqandni qo'ldan boy beradi. Natijada, Shayboniyxon sulh taklif qiladi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Chorasizlikdan bu sulhga rozi bo'lgan Bobur Samarqandni tark etadi. " Ul fatoratta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxonga tushub edi, bir o'g'il bor erdi. Xurramshoh otliq, maqbul o'g'lon edi. Balx viloyatini anga berib edi, otasi o'lgandan bir-ikki yil so'ngra tangri rahmatig'a bordi. Shoh Ismoil o'zbekni Marvda bosqonda Xonzodabegim Marvda edi. Mening jihatimdin yaxshi ko'rub, andin uzattilar. Qunduzda kelib menga qotildilar. Muforaqat imtidodi o'n yil bo'lub edi."<sup>1</sup> Boburning boshiga og'ir kunlar tushganda, Shayboniyxon uni halok etadigan bo'lganda Shayboqxon sulh so'zini oraga soladi. "Kechadin ikki pahar bo'la yovushib edikim, Shayxzoda darvozasidin chiqildi. Volidam Xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun chiqti: biri Bichka xalifa edi, yana biri Minglik ko'kaldosh edi. Mening egachim Xonzoda Begim ushbu chiqqonda Shayboqxonning iligiga tushti"<sup>2</sup>, deb qisqacha ma'lumotlarni berib o'tgan Bobur "Boburnoma" da. Samarqand qamali chog'i opasi Xonzodabegim unga shunday yaxshilik qiladiki, o'zini arosatga solib bo'lsa-da, ukasini qutqaradi. Bu xalqimiz tarixidagi dilbar sahifalardan biridir. Xonzoda va Boburning nufuzli qarindoshlaridan birortasi, amakisi, Xuroson hukmdori Sulton Husayn Mirzo Boyqaro Boburga yordam jo'natmadi. Xonzodaning jiyani Gulbadan begimning guvohlik berishicha, „oxirida shunday qilish kerak edi, u begimni xonga berdi“. Xonzoda begim (temuriy) Shayboniyxon nikohiga kiradi va undan Xurramshoh ismli o'gil ko'radi. Ajdodlardan meros bo'lib qolgan kishilarimizning bir-biriga mehr-u oqibati, sadoqati, fidoyiligi shunda yaqqol ko'rinadi. Xonzodabegim Shayboniyxon haramida o'n yil arosatda yashaydi. Xonzoda begim Shayboniyxonning nikihiga kirganida Shayboniyxon 50 yoshlarda bo'lgan. Bu holat faqatgina Xonzoda begimning o'zidan chiqqan fikr bo'lmasa kerak. Onasi va buvisi Eson Davlat Begim Boburning hayotini saqlab qolish uchun maslahati bilan bo'lgan bo'lsa kerak. Shayboniyxon Xonzoda begimdan oldin uning xolasi Sulton Mahmudxonning vafotidan keyin uning ayoliga uylangan. Endi esa hali turmush ko'rmagan Xonzoda Begimga uylanadi. Bu albatta ayanchli hol edi. Temuriy malikalardek to'y ko'rmay faqatgina buvisi Eson Davlat begim bilan o'tadi nikohi. U onasi va ukasini ko'p eslaydi, sog'inadi. Xayolida ukasi va onasi bilan o'tkazgan damlarni o'tkazadi. U faqatgina onasi va ukasidan xabar kutgan. Shayboniyxon Samarqandni qo'lga kiritgandan so'ng birin-ketin temuriylarga tegishli hududlarni qo'lga kiritadi.

<sup>1</sup> Бобур.3.М. Бобурнома. Юлдузча нашриёти. 1989. Б. 11.

<sup>2</sup> Бобур.3.М. Бобурнома. Юлдузча нашриёти. 1989. Б. 85.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

boshlaydi. U Fargʻonani ham bosib oladi. Baʼzi moʻgʻul xonlarini magʻlub etib, ularni Moʻgʻulistonga ketishiga yoʻl qoʻyib beradi. Biroq bu ”mehribonchilik” bekorga boʻlmaydi. U Toshkentning hokimi Sulton Mahmudxonning qizi Oysha Sultonni xotinlikka oladi. Shayboniyxon koʻp hududlarni bosib oladi va baʼzi xonlarni ozod qilish evaziga ularning qizi yoki ayoliga uylanish sulhini taklif qiladi. Bu albatta sharmandali va uyatli holat. Shayboniyxon ham temuriylar sulolarini oʻz yurtidan quvgʻan, ham ularning nafsoniyatiga tekkan. Oʻsha vaqtlarda Safaviylar sulolasi tarix maydoniga chiqadi. Shayboniyxon bilan Ismoil Safaviy oʻrtasida kelishmovchilik chiqib, oʻrtada jang yuzaga keladi. Yigirma uch yoshli Ismoil va salkam oltmish yoshga kirgan Shayboniyxon qoʻshinlari oʻrtasida 1510-yilda jang boʻlib oʻtadi. Bu jangda Shayboniyxon vafot etadi. Malikani Ismoil Safaviy himoyasiga olib, unga hurmat koʻrsatadi. Aslida Ismoil Safaviyning onasi Uzun Hasanning qizi boʻlgan. Uzun Hasan Bobur tavallud topgan xonadonga koʻp xizmati singan. Shuning sababdan Shayboniyxon oʻlimidan keyin shoh Ismoil Boburning hurmati tufayli opasini inisi yoniga yubortiradi. Yaxshilik izsiz ketmaydi, deganlaridek, bu paytda Bobur Qunduz shahrida edi, u darhol chopar yuborib Marvdagi opasini Qunduzga olib keltiradi. Xonzoda Begim ukasi bilan uning Kobuldagi saroyida emas, balki Qunduzda uchrashadi. “Qunduzda kelib qotildilar. Muforaqat imtidodi oʻn yil boʻlub edi. Men va Muhammadiy Koʻkaldosh ikov kelduk, Begim va Begimning yovugʻidagʻilar tanimadilar. Bovujudkim, otimni aytting ham, muddattin soʻngra tanidilar”<sup>3</sup> deb yozgan Bobur bu uchrashuv haqida. “Boburnoma”ning ilk sahifalarida berilgan bu maʼlumot, otasi Umar Shayx Mirzoning farzandlari bayonida zikr qilingan. Mazkur uchrashuv “Tarixi Rashidiy” asarida keng Mirzo Bobur shaxsiyatiga xos ulugʻvorlik mana shu yerda koʻrinadi. U opasini to umrining oxirlariga qadar hurmatini joyiga qoʻyadi. Henry Beveridgening yozishicha, „Shayboniyxonga nikohi sevgi nikohi boʻlgan. Shuningdek, u „Bobur barcha holatlarni tilga olmagan va u Xonzoda Samarqandda qoldirilgani Boburning Shayboniy bilan tuzgan kelishuvining bir qismi boʻlgan“<sup>4</sup> degan taxmini ilgari suradi. Xonzoda Begim (Temuriy) Shayboniyxonga uylanib, Xurramshoh ismli oʻgʻil tugʻadi. Oʻn yillik ayriliqdan

<sup>3</sup> Бобур.З.М. Бобурнома. Юлдузча нашриёти. 1989. Б. 12

<sup>4</sup> Т. Қозоқовнинг “Хонзода бегим Умаршайх Мирзо қизи” китобида маликанинг бoshqa турмушга чиқмагани ҳақида ёзилган. Муаллиф Хонзода бегимнинг учинчи марта турмушга чиққани тоʻғʻrisida маʼlumotga ega boʻlmagan shekilli.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

so‘ng opasi bilan uchrashadi. O‘tgan o‘n yil ichida Xonzoda begimning ham, Boburning ham boshidan ko‘p qiyinchiliklar o‘tgan. Xonzoda begim ancha ulg‘ayib sochlariga oq tushgan, Bobur esa o‘sha vaqtda besh farzndning otasi edi. 1512-yilda Xurramshoh vafot etadi. Malika Xonzoda Begimning keyingi o‘n besh yillik hayoti to‘g‘risida ma‘lumotlar juda ham kam. O‘g‘li Xurramshoh ham balog‘atga yetmasdan vafot etgan. Bobur jiyani haqida “maqbul o‘g‘lon edi, Balx viloyatini anga berib edi, otasi o‘lgandin bir-ikki yil so‘ngra Tengri rahmatiga bordi”, deya qisqacha tilga olib o‘tgan. Demak, Xonzoda Begimning yakka-yu yagona farzandi taxminan 1512-yili hayotdan ko‘z yumgan. Malika Bobur saroyidagi nufuzli amirlardan biri sanalgan Mahdiy Xojaga turmushga chiqqan. Mahdiy Xoja “Boburnoma” sahifalarida ilk bor Panipat jangi tafsiloti bayonida zikr qilingan. Demak, Xonzoda Begim ukasi va eri Hindistonga ketganida Kobulda qolgan. Panipat jangida Boburning qo‘li baland keladi. Shimoliy Hindistonni davlat tasarrufiga kiritadi. Pochchasiga It‘ava qal‘asini inom qilgan. Manbalarda Xonzoda Begimning eri Mahdiy Xojani Sayyidlar avlodidan ekanligi yozilgan. Bobur Hindistonni o‘z tasarrufiga olgandan keyin opasi Hindistonga tashrif buyuradi. Bir yildan so‘ng ukasi Bobur vafot etadi. Bu Xonzoda begim uchun katta judolik edi. Xonzoda begim Shayboniyxondan bo‘lgan o‘g‘li Xurramshohdan boshqa farzand ko‘rmagan. Shu sababli Xonzoda begim qaynisinglisining Sultonim ismli qizini ikki yoshligidan o‘z tarbiyasiga olgan. Xonzoda begim (temuriy) o‘zining aql idroki va tadbirkorligi tufayli saroy ahli orasida yuksak hurmat va e‘zozga sazovor bo‘ladi. Boburning vafotidan keyin Xonzodabegim Boburnomani nihoyasiga yetkazib qo‘yadi. Bobur vafotidan keyin keyingi hayoti Boburiylar sulolasini saqlab qolishga, aka-ukalar o‘rtasidagi munosabatni ushlab turishga qaratadi. Biroq vaziyatni bir xillikda ushlab turish qiyin bo‘lgan. Sababi ham ichki, ham tashqi kuchlarning ta‘siri juda katta bo‘lgan. Ayniqsa aka-ukalar Humoyun va Komron o‘rtasidagi adovatlarni yo‘qotishga ko‘p harakat qilgan. Komron Mirzoga Kobul berilgan bo‘lsa-da, negadir u qanoat qilmaydi. Akasiga zarba berish payida bo‘lgan doim. Humoyun Hindiston podshosi etib tayinlangandan so‘ng Hindistonni qo‘ldan boy berib qo‘yadi. Ko‘p sarsongarchlikdan so‘ng Humoyun Mirzo safaviylarning yordami bilan Ukasi Komronga qarshi yurish qiladi. Komronning akasiga kuchi yetmasligini, akasining ortidan qabih ishlarni qilganligi sababli ammasiga iltijo qilib ular o‘rtasida sulh tuzdirishni iltimos qiladi. Aka-ukalar o‘rtasidagi adovatni yo‘qotish maqsadida va tarqoqlikka barham berish maqsadida Humoyun oldiga

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

yo'lga chiqadi. Qandahorda Humoyun bilan uchrashadi. Xonzoda begim 1545-yil sentyabrda jiyani Humoyun bilan Qandahordan o'zining kichik ukasi Kamron Mirzo bilan uchrashish uchun ketayotganida Kobulhaq mavzeida vafot etadi. Uch oydan keyin uning xoki Kobulga keltirib, Bobur maqbarasiga dafn qilinadi.

Hazrat kelganlaridan so'ng Xonzoda begim Akbar podshohni Mirzo Komronga topshirgan. Mirza Komron esa ularni o'zining xotini Xonimga topshirib juda tezlik bilan Qandahorga keldilar. Xonzoda begim Bobur vafotidan keyin Boburning farzandlari o'rtasidagi nohalikga barham berishga ko'p uringan. Ayniqsa, podsho Humoyun va Mirzo Komron o'rtalaridagi adovatni yo'qotishga ko'p uringan. Xonzodabegim ukasi Boburga qanday yaxshilik qilib, uning taqdiriga befarq bo'lmagan bo'lsa, uning farzandlarining o'rtasidagi kelishmovchiliklarga e'tiborsiz bo'lmagan. Boburning farzandlari yoshi katta, otasining jigari deb Xonzoda begimning maslahatlariga quloq tutgan. Bundan ko'rinadiki, ayollarning o'rni oilada katta bo'lgan. Shunchaki farzand tug'adigan oddiy ayol sifatida emas, balki sirdosh, maslahatchi, darddosh sifatida ham qaragan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Bobur Mirzo "Boburnoma" da ayollarning mamlakatda tutgan o'rni, ular urushlarning, to'qnashuvlarning oldini oluvchi timsol sifatida qaragan. Misol uchun Sulton Ahmad Mirzoning Xonzoda Begimdan bo'lgan qizini, Abu Said Mirzoning Poyanda Sulton Begimdan Bo'lgan qizini, Haydar Mirzoga berib, o'rtadagi adovatga nuqta qo'ygan va bitim tuzgan. Davlatga va xalqqa yetkaziladigan zarar va notinchlikni yo'qqa chiqargan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.:

1. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet.
2. Бобур.З.М. Бобурнома. Юлдузча нашриёти. 1989. Б. 368
- 3.. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili ) . – Toshkent: "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet.
- 4 . Bobur. Z. M. T: O`qituvchi. 1995.
5. Bobur ensiklopediyasi. -T.; "Sharq", 2014. 744 –b
6. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи. XIX-XX асрлар – Тошкент: "Фан", 1973 – 192-бет.
7. Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. III kitob. Vuhoro: 2005, 63-105-betlar
8. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет.